



## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar 1 692,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 3,4 % ga kamaygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 132,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 59,1%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 560,8 mlrd. so'mni (2,0 % ga ko'paygan. shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 225,6 mlrd. so'mni (4,7% ga ko'paydi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

### UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 692,8** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **3,4** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,2%** va yirik korxonalar hissasiga **7,8** % to'g'ri keldi.




### ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **43,9** % ulush bilan **743,5** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **3,0** % ulush bilan **50,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021-yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, 1 560,8 mlrd.so'm ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2,0% ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 92,2 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kosonsoy (98,5%), Mingbuloq (98,3 %), Chortoq (97,1 %), Yangiqo'rg'on (96,9 %), Uychi (95,8 %) va Namangan (95,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yangiqo'rg'on (113,0 %) va Namangan (102,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020-yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1692,8	96,6	13197,7	59,1	1560,8	102,0
Namangan.sh	743,5	97,1	5575,1	74,1	687,8	99,5
tumanlar:						
Mingbuloq	50,8	101,8	87,3	98,8	49,9	101,8
Kosonsoy	80,4	101,6	116,6	96,3	79,2	101,7
Namangan	81,9	102,8	371,1	130,3	78,2	101,8
Norin	73,1	101,6	860,8	105,6	64,5	101,0
Pop	104,5	101,9	861,0	88,9	95,9	103,2
To'raqo'rg'on	104,4	102,3	886,3	148,4	95,5	99,5
Uychi	80,0	88,9	339,0	20,9	76,6	103,9
Uchqo'rg'on	68,0	100,9	519,9	93,4	62,8	101,6
Chortoq	63,5	82,3	182,8	10,4	61,7	103,5
Chust	158,1	82,1	3136,9	40,4	126,8	110,3
Yangiqo'rg'on	84,7	113,0	261,0	109,5	82,1	113,1

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 40,9 % ga kamaydi va **132,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 560,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,0 %** ga ko'paygan. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,2 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (98,5%), Mingbuloq (98,3%) Chortoq (97,1%), Yangiqo`rg`on (96,9%), Uychi (95,8%) Namangan (95,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (19,8%), Norin (11,8%) To`raqo`rg`on (8,5%) Pop (8,2%), tumanlarida kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON  
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **596,2** ming so'm (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,6** % ga kamaygan). Yangiqo'rg'on (110,4%), Namangan (100,3%), To'raqo'rg'on (100,0%) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida ko'payish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (1 174,4 ming so'm), Chust (592,2 ming so'm) va Pop (473,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	596,2	94,4
Namangan.sh		
tumanlar:	1174,4	94,7
Mingbuloq	399,4	99,4
Kosonsoy	381,8	99,3
Namangan	453,4	100,3
Norin	443,8	99,6
Pop	473,4	99,9
To'raqo'rg'on	458,4	100,0
Uychi	372,9	86,9
Uchqo'rg'on	392,6	98,8
Chortoq	316,9	80,6
Chust	592,2	80,5
Yangiqo'rg'on	385,6	110,4



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **27,6 mlrd. so'mga** yetdi va 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **1,5 %** ga ko'paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **86,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	27,6	101,5	3,8	109,5	23,8	100,4
Namangan.sh	15,3	104,6	3,5	106,5	11,8	104,1
tumanlar:						
Mingbuloq	0,7	98,9	0,0	0,0	0,7	98,9
Kosonsoy	0,9	99,4	0,0	0,0	0,9	99,4
Namangan	1,5	110,2	0,3	3,9m	1,3	94,8
Norin	0,8	96,6	0,0	0,0	0,8	96,6
Pop	1,6	95,7	0,0	0,0	1,6	95,7
To'raqo'rg'on	1,1	95,5	0,0	0,0	1,1	95,5
Uychi	0,7	102,4	0,0	33,8	0,7	103,5
Uchqo'rg'on	1,2	95,4	0,0	0,0	1,2	95,4
Chortoq	0,9	97,6	0,0	0,0	0,9	97,6
Chust	2,3	92,4	0,0	0,0	2,3	95,9
Yangiqo'rg'on	0,6	103,0	0,0	0,0	0,6	103,0



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2021-yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **420,6** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **12,9 %** ga kamaygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **87,9** mlrd. so'mni (**44,5 %** ga kamaygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **332,7** mlrd. so'mni (**2,5 %** ga ko'paygan).


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Uchqo'rg'on (64,8m), Uychi (5,3 m.) Chortoq (3,4 m.), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Uchqo'rg'on (213,9), Uychi(194,4), To'raqo'rg'on (119,4), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	420,6	87,1	87,9	55,5	332,8	102,5
Namangan.sh	174,1	62,1	18,9	14,9	155,2	101,0
tumanlar:						
Mingbuloq	7,9	101,0	0,0	0,0	7,8	101,1
Kosonsoy	23,8	105,8	0,0	198,2	23,8	105,8
Namangan	16,0	101,9	0,1	72,7	15,9	102,2
Norin	16,4	113,3	1,5	0,0	14,9	103,1
Pop	19,8	102,4	0,1	136,4	19,8	102,4
To'raqo'rg'on	46,9	119,4	24,8	139,0	22,1	103,1
Uychi	41,9	194,4	22,8	5,3m	19,1	110,9
Uchqo'rg'on	12,5	213,9	6,6	64,8m	5,9	102,0
Chortoq	28,0	129,3	8,4	3,4m	19,6	102,3
Chust	14,6	88,6	4,6	67,9	10,0	103,2
Yangiqo'rg'on	18,7	103,5	0,0	0,0	18,7	103,5

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021-yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, **332,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,5** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **79,1** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo`rg`on (100,0 %), Norin va Kosonsoy (99,9 %), Mingbuloq (99,8 %) va Pop (99,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Uychi( 45,5 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel : (69)-211-72-00